



Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari va muammolar

Jo'rayeva Karomatoy Ma'murjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Rus tili ta'lim yo'nalishi talabasi

karomatjorayeva15@gmail.com

Tojiddin Yo'ldoshev Abdukarimovich

Pedagogika va psixologiya fani katta o'qituvchisi

tojiddinyuldoshev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy ustanovkalar va shaxsiyat muammolari haqida gapiradi. Ijtimoiy ustanovkalar ijtimoiy muhitda shakllanib, inson tafakkuri va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan psixologik mexanizmlardir. Ular bizga ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni va odamlar guruhlarini atrofimizdagi dunyoga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradigan tarzda tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ustanovka, ijtimoiy, sotsial, elementar, bazaviy, attityud, kognitiv, konativ, affektiv, tajriba, motiv, fiksial ustanovkalar.

Аннотация: В данной статье говорится о социальных установках и проблемах личности. Социальные установки — это психологические механизмы, которые формируются в социальной среде и влияют на мышление и поведение человека. Они помогают нам понимать социальные явления, объекты и группы людей таким образом, чтобы изменить наше отношение к окружающему миру.

Ключевые слова: установка, социальное, социальное, элементарное, базовое, отношение, когнитивное, волевое, аффективное, мотив, фиксал установка.



Ustanovka inglizcha soʻz boʻlib, koʻrsatma berish, anglanmagan mayllar, yoʻl-yoʻriq koʻrsatish maʼnolarida qoʻllanib kelinadi. Biroq keyingi atamalar uning haqiqiy maʼnosini, mohiyatini mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun ushbu atamani oʻzgarishsiz qoldirsa ham boʻladi. Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bogʻliq boʻlgan ehtiyojni maʼlum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyorlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning oʻzi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir.

D.Uznadze talqinida «ustanovka» tushunchasi: Amerika ustanovka nazariyasi va fransuzlarning jamoaviy tasvirlar nazariyasidan farqi gruziyalik psixolog D.N.Uznadze tomonidan taklif etilgan va soʻnggi oʻn yillikgacha uning hamkasblari va shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan ustanovka nazariyasidir. "Sub'yektning voqelikka munosabatining deyarli hech qanday muhim sohasi yoʻq, unda ustanovkaning ishtiroki butunlay chiqarib tashlanadi. Ob'ekt tomonidan barcha qabul qiluvchi organlar yordamida olingan materialga taalluqli ustanovka shunday boʻlishi kerak. Ularning maxsus funktsiyasi sifatida emas, balki shaxsning umumiy holati sifatida tushunilishi kerak ... Bu sub'ektning ayrim alohida organlariga emas, balki uning butun faoliyatiga tegishli boʻlgan maʼlum bir umumiy holat boʻlishi kerak.

Ustanovka, Uznadzening fikricha, ong doirasidan tashqarida yotadi. "Ongli aqliy jarayonlarga qoʻshimcha ravishda, maʼlum maʼnoda" qoʻshimcha ongli "maʼnoda mavjud boʻlib, bu ularning juda muhim rol oʻynashiga toʻsqinlik qilmaydi. Bizning holatda, bu rolni biz ilgari oʻynagan ustanovka oʻynaydi, hipnotik uyqu holatida, bizning sub'ektlarimizda oʻrnatilgan. Ustanovka sub'ekt ongining alohida akti boʻla olmaydi, bu faqat uning butun holatining uslubidir. Shuning uchun, agar bizda haqiqatan ham ongsiz ravishda biror narsa oqayotgan boʻlsa, bu, albatta, birinchi navbatda, bizning ustanovka, deb oʻylash juda tabiiy. Biz ongsizlikning haqiqatan ham biz bilan mavjudligini koʻramiz, lekin bu ongsizlik sub'ektning ustanovkasidan boshqa narsa emas. Sof psixologik maʼnoda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va oʻzgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy



ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir. Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustnovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar yoqadi. Lekin nima uchun xuddi shu asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaydi. O'sha guruhdan yangi bir kitob qo'lga kiritganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo'ladi.



Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob'ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir. Ijtimoiy ustanovka muammosi G'arbda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi xayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlarga bog'liqligini o'rganib, shaxs xulq-atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. Ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan— "attityud" so'zi bilan ifodalaydilar. 1942-yildayok M. Smit attityudning uch komponentli strukturasini ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uch qism bo'lib, bular kognitiv qism, affektiv qism hamda konativ qismlaridir.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Ba'zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Ustanovka — insonning o'zi bilmagan holda yon-atrofidagi insonlar va voqelikni baholashi va ularga nisbatan munosabat bildirishidir.

Ustanovka — bu faoliyatga mustaqil tayyorlikdir.

Ustanovka — insonning ichki o'ziga xos tuyg'ularini namoyon etishga ruhan tayyorlik holatidir. Ustanovka uzoq vaqt davomida shakllanadi va u insonning qadr-qimmati bilan uzviy bog'liqdir. "Moyillik", "yo'nalganlik", "tayyorlik" kabi mazmunni anglatuvchi, bir-



biriga o'xshovchi "ustanovka" va "sotsial ustanovka" tushunchalarini bir-biridan farqlash lozimligi ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatga shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saklanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob'ektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir. Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovlant fikricha, ijtimoiy ustanovka urgatish Yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun ragbatlantirish yoki ja'zolah sistemasini o'zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ong'li ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi mukarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамова Ф.А. Ижтимоий психология: ўқув қўлланмаси. – Т., 2007.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – М., 1990.
3. Узнадзе Д. (Ред.) Материалы к психологии установки // Труды Тбилисского государственного университета. 1940. Т. 17. (на груз. яз.)
4. Узнадзе Д. Основы экспериментальной психологии. Т. 1. Принципиальные основы и психология ощущений. Тифлис: издание Тифлисского ун-та, 1925. (на груз. яз.)
5. Узнадзе Д. Основной закон смены установки // Психология. 1930. Т. III, вып.



6. Melikboboyevich, S. U., & Abdukarimovich, Y. T. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE TREATMENT OF PERSONAL AGGRESSION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 26-30.
7. Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In *Conference Zone* (pp. 227-229).
8. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
9. Abdukarimovich, Y. T., & Melikboboyevich, S. U. (2022). FORMING A RESPONSIBLE ATTITUDE TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 653-657.